

MAXTIMQULI FIROG'IYNING JAHON TARIXIDA TUTGAN O'RNI

O'rinbayeva Lalezar Azatbay qizi

Toshkent shaxar. Toshkent amaliy fanlar universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi.

+998.97.474.36.76.

Annotatsiya : Maxtimquli Firog'iyning hayoti va ijodi va uning foaliyatida erishgan yutuqlari va she'r u g'azallari haqida maqola.

Kalit so'zlar: Maxtimquli Firog'iyning she'rlari, hayoti, ijodi, nimalarga erishganligi,

Kirish. Maxtimquli Firog'iyning ijodlari, Turkman halqining eng sevimli va eng kuchli taniqli shoirlaridan biri hisoblanadi. Maxtimquli Firog'iy Maxtumquli (turkmancha: Magtymguly Pyragy; forsha: غارفي لقمودخم, Maxtumquli Faroġiy); 1724, Gurgan daryosi sohilidagi Hoji-govshanqishlog'i —1807)—turkman shoiri va mutafakkiri.

Asosiy qism

Turkman kilassik adabiyotining otasi, zabardas lirik shoir va mutafakkir Maxtumquli Faroġiy Turkmanistonning Qoraqala degan joyida shoir Davlatmamet Ozodiy oilasida tug'iladi. Otasi Davlatmamat Ozodiy (1700—1760) ham shoir bo'lgan Maxtimquli boshlang'ich ta'limni oilada o'z otasidan olgan. So'ng qishloq maktabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qigan. Dastlab Maxtumquli Xalachatrofning Qiziloyoq qishlog'idagi Idrisbobo madrasasida, keyinchalik Buxoroning Ko'kaldosh, Xivaning Shergoziy madrasalarida tahsil olgan. Nizomiy, Firdavsiy, Fuzuliy, Navoiy singari mashhur shoirlar ijodidan bahramand bo'lgan. Zargarlik bilan shug'ullangan. Afg'oniston, Eron, Hindiston, Ozarbayjon, Samarqand, Turkiston kabi bir kancha shaharlarga sayohat qilgan. Maxtimqulining oilaviy sharoiti xususida har xil rivoyatlar bor. Maxtumqulishunoslar Maxtimquli Menglixon ismli qizni chin dildan sevganini, biroq ularning turmush qurishiga imkon bo'lmaganini yozadilar. Menglixon Maxtumquliga qarindosh yani xolasining qizi bo'lib ular yoshlikdan bir-birlariga ko'ngil qo'yishadi, biroq Maxtumquli katta yo'qotishlarni boshidan o'tkazadi, otasi va ikki akasining o'limi uning oilasini moddiy qiyin ahvolga olib keladi, qizga beriladigan qalin pulini bera olmasligini bilgan Menglixonning akalari singlisining norizoligiga qaramasdan uni boshqa bировga turmushga berib yuborishadi. Maxtimquli bir kancha lirik she'rlar, lirikepik dostonlar, g'azal va muhammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik, falsafiy, pand nasihat harakteridagi 10 ming miyeradan ortiq she'rlari yetib kelgan. Maxtimquli she'rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatlar, o'z davrining muhim ijtimoiy siyosiy hodisalari, shoirning ichki kechinmalari teran ifoda etilgan ("Bo'lmasa", "Kelgay", "Bilan", "Naylayin", "Yetmas", "Bular", "Ketdizamona" vaboshqalar). Asarlarida turkman urug'larini birlashishga chaqirgan. Ular o'rtasidagi nizojanjallarni tugatishga uringan ("Taka, yovmut, ko'klang, yozir, alili—Birdavlatga qullik kilsak beshimiz..."). Maxtimning ishq-muhabbat mavzuidagi she'rlari hamohangdorligi, chukur falsafiy mohiyati bilan ajralib turadi. Shoirning hayot va o'lim, inson va borliq, go'zal insoniy fazilatlar va odob-axloq qaoid she'rlarida islom dini hamda tasavvufiy karashlar ta'siri yaqqol seziladi ("Mahtumkuli, shukretsen Xudoga, O'lim barobardir shoh u gadoga..."). Ko'p she'rlariga Qur'oni Karim oyatlari, hadisi sharifning mazmun mohiyati singdirilgan. Shoir she'rlarida payg'ambarlar, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy singari ulug' zotlar juda ko'p tilga olinadi. Shuningdek, Allohga munojot, Rasululloh(sav)ga murojaat ohanglari Maxtumquli

she'riyatining eng asosiy tamoyillaridan biridir ("Riyodan,yo Rab","Sochdi Muhammad","YO Rasul"va boshqalar). Maxtimquli uslubida xalq og'zaki ijodiga yaqinlik bor. Maxtimquli turkman xalqining maqol va matallarini ,xalqtiliga xosayrimunsurlarni adabiyotga olib kirishda kattaxizmatqilgan.Shoirning purma'no misralari turkmanmillatininghikmatliso'zlari,aforizmlarqatoridano'rinolgan.M.ijodi Yevropavarussarqshunoslari,turkman va o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan; qiyosiy o'rganilgan.

Xususan, Navoiyijodining Maxtimquliga ta'siri va boshqa adabiy ta'sir masalalari tekshirilgan (S.Qoriyev,"Navoiyva Mah-tumquli","Maxtumquli va Islomshoir", "Maxtumquli she'rlari asosida yaratilgan o'zbek xalq qo'shiklari" vaboshqalar). Shuningdek Maxtumqulining" Namasan", "Ayrildim", "Oshiq bo'lmisham","Ustodingdan ayrilma","Ko'ring"she'rlari Komiljon Otaniyozov, Bobomurod Hamdamov, Ortiq Otajonov tomonidan maromiga yetkazib kuylangan. Maxtimquli she'riyati barcha turkiymillatlar, jumladan, o'zbeklarning hamma'naviy mulkiga aylangan. Bir necha marta she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Ko'plab she'rlari hofizlar tomonidan kuyga solib aytiladi. Maxtimquli haqida kinofilm, spektakl va badiiy asarlar yaratilgan. Eng ajoyib she'rlaridan biri "Adolat yaxshi"

Aslo odamzotga achchiq so'z qilmang.

Faqiru misinga dalolat yaxshi,

Baxilga uchramang- kular yuz bo'lmang,

Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Turkman tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. "Mirzo Kenjabek" tarjimalari.

Xulosa.

Darhaqiqat Maxtumquli Faro'giy juda ham ijod sevar turkman halqining eng sevimli va eng yorqin namoyondalaridan biri. Maxtimquli Firog'iy Maxtumquli o'ziga Firog'iy laqabini olgan sababi, u o'ziga yaqin insonlardan ayrilgan. Sevgan qizi Menglxon ismli qizdan keyin esa akasining ikkita o'g'lidan ayrilgan. Shu sababli u o'ziga shu laqabni oladi. Maxtumquli Faro'giyning qachon tug'ulganligi haqida aniq ma'lumot yo'q manbalarda tahminlar keltirilgan. Shu sababdan har hil sanaalarga duch kelishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.QuramboevK.,O'zbek-turkman adabiyaloqalari, T., 1978. BahodirKarimov
- 2.Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)